

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

O‘ZBEK TILI LAHJA VA SHEVALARI

Aslonboyeva Arofat Qurbontoy qizi

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti 1-bosqich talabasi

Abdirimova Intizor Kamilovna

Ilmiy rahbar: Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsent v.b

E-mail: Akurbontoeva@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tili lahja va shevalari haqida so‘z boradi. Lahja va shevalarning maqsad va vazifalari insonlarning hayotiy tajribasi hamda turmush tarzida shakllangan amaliy qarashlari majmui hisoblanadi.

Kalit sozlar: lahja, sheva, guruhlar, til, tilshunoslik, dialekt, terminologiya, affiks, orfografiya, leksik, fonetik, so‘z, ibora, ifoda, qipchoq.

DIALECTS AND DIALECTS OF THE UZBEK LANGUAGE

Annotation: This article talks about dialects and dialects of the Uzbek language. The goals and tasks of dialects and dialects are a set of practical views formed by people's life experience and lifestyle.

Key words: dialect, dialect, groups, language, linguistics, dialect, terminology, affix, orthography, lexicon, phonetic, word, phrase, expression, Kipchak.

Lahja yoki Dialekt — umumxalq tilining muayyan chegaralangan hududda joylashgan kishilar jamoasida bevosita aloqa vositasi sifatida qo‘llanuvchi va nisbatan yaxlit lisoniy tizim bilan ajralib turuvchi ko‘rinishi. Lahja bir qator kattaroq til tuzilmasi tarkibiga kiradi, ushbu butunlikning boshqa qismlariga, boshqa Lahjalariga qarshi qo‘yilib, taqqoslanadi va ular bilan umumiy xususiyatlarga ega bo‘ladi. Hududiy Lahjalar tovushlar tarkibi, grammatika, so‘z yasalishi, leksika nuqtai nazaridan muayyan tafovutlarga ega bo‘ladilar. Bunday farqlar sezilmas darajada bo‘lib, aniq, bir tilning turli Lahjalarida so‘zlovchilar bir-birini yaxshi tushunishadi (mas, o‘zbek tili Lahja va shevalari), boshqa tillarning Lahjalari bir-biridan kuchli farq qilib, bunda turli Lahjalarda so‘zlovchilarning o‘zaro aloqasi qiyinlashadi yoki mumkin bo‘lmaydi (mas, nemis, xitoy tillari Lahjalari).

Lahja umumxalq tilining quyi bosqichi hisoblanadi, u shevaga nisbatan keng ma‘noga ega bo‘lib, shevalar yig‘indisidan tarkib topadi. Mas, etnogenetik jihatdan ko‘p tarkibli bo‘lgan o‘zbek tilida 3 ta asosiy Lahja farqlanadi: qorluq-chigil-uyg‘ur lahjasi — Farg‘ona vodiysidagi, Toshkent va Zarafshon vohalaridagi shaharlar va ularga yaqin aholi maskanlari shevalarini o‘zi ichiga oladi; qipchoq lahjasi — Samarqand, Buxoro, Surxondaryo, Shimoliy Xorazmdagi hamda Farg‘ona va Ohangaron vodiylaridagi "j"lovchi o‘zbek shevalarini o‘z ichiga oladi; o‘g‘uz lahjasi — Janubiy Xorazm (Urganch, Xiva, Xonqa, Hazorasp va boshqalar) va Turkmanistondagi o‘zbek shevalaridan iborat. Mazkur Lahjalarning fonetikasi, grammatikasi va lug‘at tarkibida bir-biridan farq qiluvchi xususiyatlar mavjud, lekin bu farqlar ularni bir-biridan keskin ajratmaydi.

Bu Lahjalar o'zbek xalqi va tilining paydo bo'lishi va rivojlanishida yetakchi o'rin egallab, qoz. o'zbek adabiy tilining shakllanishi va undagi ayrim lisoniy hodisalarning barqarorlashishida ishtirok etgan. Qorluq Lahjasining Toshkent va Farg'ona tip shevalari hozirgi o'zbek adabiy tilining tayanch shevalari hisoblanadi. O'zbek adabiy tili hozir ham Lahjalardagi eng ifodali, ko'p ma'noli so'zlar va iboralar, maqbul grammatik shakllar hisobiga boyib bormoqda. Dunyo tilshunosligida dialekt (sheva)lardagina uchraydigan dehqonchilik, chorvachilik va turli kasb egalari nutqiga xos leksikani lug'atlashtirish, leksikografik, leksikologik tadqiqi boshqa rivojlangan tilshunoslik maktablari qatori rus tilshunoslari uchun ham asosiy o'rganish ob'yektiga aylandi. XX asrning boshlarida yuzaga kelgan ushbu tadqiq usuli o'zbek tilshunosligida ham samarali ilmiy tadqiqotlarni vujudga kelishiga asos bo'ldi. O'zbek tiliga davlat maqomining berilishi o'zbek tilshunosligi zimmasiga bajarilishi lozim bo'lgan katta vazifalarni yukladi. Ana shu vazifalardan biri xalq shevalari lug'at xususiyatlarini tadqiq qilishdir. Sheva leksikasi bo'yicha kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, dialektal farqlar o'zbek tilida juda ko'p va xilma-xildir. Shuning uchun o'zbek tili ayrim shevalarining leksik xususiyatlarini o'rganish o'zbek dialektologiyasida eng dolzarb va muhim masalalardan biridir.

Dialektal leksikani o'rganish til tarixi va hozirgi zamon o'zbek adabiy tiliga aloqador masalalar – ba'zi so'z, affikslarning tarixi va genezisini belgilashda, leksik me'yorni aniqlashda, terminologiya, orfografiya masalalarini hal qilishda, o'zbek shevalarining atlasini tuzishda, shuningdek, ko'p tomlik o'zbek xalq shevalari lug'atini yaratishda katta ahamiyatga ega. O'zbek shevashunosligida mavjud bo'lgan ilmiy adabiyotlarda, sheva, lahja va dialekt atamaları turlicha ma'nolarda qo'llanilib kelmoqda. Shevalar bir-biriga juda yaqin va o'xshash bo'lganliklari holda tilimizning eng kichik bo'lagini tashkil qiladi. Sheva forscha so'z bo'lib, ovoz, til, so'zlashish, yo'sin, ravish kabi ma'nolarni bildiradi. Shevalar o'zbek tilining o'ziga xos fonetik, grammatik, leksik xususiyatlariga ega bo'lgan kichik bir qismidir.

Shevalar o'zlarining geografik o'rni bilan bir-biridan ajralib turadi. Masalan, o'zbek tilining qorluq chigil-uyg'ur guruhiga kiruvchi Andijon, Toshkent, Marg'ilon, Samarqand, Buxoro, Kattaqo'rg'on, Qarshi, Urgut kabi kichik tarmoqlarni tashkil qiladi. Qipchoq guruhiga esa mang'it, ming, yuz, nayman, chig'atoy kabilar kiradi. Shevalar o'zaro birikib, lahjalarni tashkil etadi. Sheva va lahjalar o'zbek milliy tilida o'rganiladi. Sheva va lahja adabiy til tushunchasiga kirmaydi. Lekin ular o'zbek adabiy tilini boyitish uchun xizmat qiladi.

Lahja arabcha so'z bo'lib, ifoda, ovoz, sheva ma'nolarini anglatadi. O'zbek shevashunosligida lahja shevalarning asosiy xususiyatlarini o'zida birlashtiruvchi shevalar yig'indisini bildiradi. Bu lahja atamasining keng ma'noda qo'llanilishidir. Masalan, o'zbek tilining qarluq -chigil-uyg'ur, qipchoq, o'g'uz lahjalari bunga misol bo'la oladi. Lahja atamasi so'nggi yillargacha bo'lgan lug'atlarda eskirgan so'z sifatida qayd etilgan bo'lsa, so'nggi yillarda bunday belgisiz qo'llangan.

Dialekt lotincha so'z bo'lib, shevaga nisbatan keng ma'noda qo'llanadi. Adabiy tildan o'zining ba'zi bir xususiyatlari (fonetik, grammatik, leksik) bilan farqlanadigan biror umummilliy tilning yirikroq bo'lagi dialekt deyiladi. Amaliy hayotda esa o'zaro anglashish yoki anglashishmaslik hisobga olinadi. Masalan, o'zbek tilining o'g'uz dialekti, qipchoq dialekti. Professor Fozi olim Yunusov o'zi to'plagan juda boy daliliy materiallarga suyanan holda 1936- yilda nashr etilgan "O'zbek lahjalarining tasnifida bir tajriba" asarida o'zbek shevalarini uch katta guruhga bo'lib tasnif qildi va shu asosda tasnif holatini ham berdi: 1. O'zbek-qipchoq lahjasi 2. Turk-Barlos lahjasi 3. Xiva-Urganch yoki o'g'uz lahjasi V.V. Reshetov o'zbek shevalarining tarixiy lingvistik xususiyatlarini va ayrim dialektlarga qardosh tillar (tojik, qozoq, qoraqalpoq, turkman) munosabatini hisobga olgan holda o'zbek shevalarining tasnif shevalarini tuzdi.

Adabiy tilning shakllanishida bevosita ishtirok qilgan ba'zi o'zbek shevalarining unilari o'ziga xos qator xususiyatlarga ega. Toshkent— Farg'ona tilidagi shahar shevalari hamda shahar shevalarining leksik-grammatik va talaffuz xususiyatlariga o'xshash bo'lgan qishloq shevalari adabiy tilning shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

Sheva (fors. — harakat tarzi, tarz, usul) — tilning fonetik, grammatik va lug'aviy jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan eng kichik hududiy ko'rinishi — sezilarli lisoniy tafovutlari bo'lmagan bir yoki bir necha aholi maskani (odatda, qishloq)da yashovchilarning so'zlashuv vositasi sifatida qo'llanadi. Sheva — bu boshqa Sheva tizimlaridan fonetik, grammatik, so'z yasalishi va lug'aviy belgilariga ko'ra farqlanuvchi lisoniy tizim sifatida mavjud bo'ladi. Masalan, qipchoq lahjasining mang'it yoki saroy shevasi, qarluq lahjasiga mansub Marg'ilon shevasi va boshqalar o'zbek tilining eng kichik hududiy ko'rinishlari hisoblanadi. Alohida Shevalar birikib, lahjasi tashkil etadi.

Shevalar tizimining murakkablik darajasi, asosan, ekstralingvistik omillar: Shevaning alohidalanish (ajralib qolish) darajasi, muayyan Sheva vakillarining boshqa Shevalar va tillarning vakillari bilan aloqa qilish darajasi, adabiy tilning shahriga ta'siri va shahrik.ga bog'liq. Alohida ajralib qolgan Shevalarda uning vakillari bilan atrofdagi aholi o'rtasida aloqalarning yo'qligi (geografik yoki siyosiy sabablar, atrofdagi aholining til, madaniyat, diniy e'tiqod jihatdan ayni Sheva vakillaridan keskin farklanishi tufayli), sheva vakillarining an'anaviy turmush tarzini saqlab qolishga astoydil intilishi oqibatida Sheva juda sekinlik bilan o'zgaradi, katta va kichik yoshdagilarning tilidagi farq sezilarsiz darajada bo'ladi. Adabiy tilning yoki boshqa shahrining kuchli ta'siri ostida bo'lgan shahrida aholining turli guruhlari nutqiga xos bo'lgan, birbiriga qarama-qarshi qo'yilgan va turli darajada farqlanadigan an'anaviy (qadimgi) va yangi qatlamlar ajralib turadi.

Milliy til tushunchasining hajmi va qo'llanish doirasi keng bo'lib, lahja va Shevalarni ham qamrab oladi. Shevalar adabiy til tushunchasiga kirmaydi, biroq ular tilning quyi shakli va tarmoqlari hisoblanib, adabiy tilni boyitish uchun xizmat qiladi. Adabiy til me'yorlarining takomillashuvi, fan va madaniyat taraqqiyoti, shahar bilan qishloq o'rtasidagi tafovutlarning kamayib borishi kabi ekstralingvistik omillar tufayli Shevalar ham asta-sekin o'z xususiyatlarini yo'qota boradi.

O'zbek tilining barcha lahjalario'zbek tilining taraqqiyotiga ma'lum bir darajada hissa qo'shgan. Birining adabiy tilga ta'siri bir sohada kuchiroq bo'lsa, boshqa sohada o'zga bir shevalar guruhining ta'siri ko'proq seziladi. Masalan, Andijon, Farg'ona shevalari o'zbek tiliga xos eng ko'p tarqalgan grammatik shakllardan birini — hozirgi zamon fe'lining (-yap) affiksi vositasida yasaluvchi shaklini bergan deyiladi. Lekin bu shakl qipchoq lahjalarida ham xuddi shunday qo'llanadi. Qipchoq shevalarining adabiy til lug'atini, xususan, uning chorvachilik atamalar tizimini rivojlantirishda, adabiy tilning uslubiy imkoniyatlarini boyitishda katta hissasi bor. Masalan, qirqim, o'tov, to'l, sarimoy, chakki, chalop, uloq, sovliq kabi umumiy va chorvachilik atamalari, quyruq, bovor, patir, tovoq, kulchatoy, lochira singari pazandachilik atamalari adabiy tilga qipchoq shevalaridan kirib kelgan. Adabiy tilning rivojlanishiga o'zbek tilining o'g'uz lahjasi ham ma'lum darajada hissa qo'shgan. Buning uchun adabiy tildagi yoshulli, o'g'lon, buyon, qaydin, qorago'z kabi qator so'zlarni misol keltirish kifoya. Shevalar tarixan qanchalik barqaror bo'lsa, Adabiy til uchun shevalarning vakillarini lingvistik nuqtayi nazardan umumlashtirish shunchalik murakkablashadi. Hozirgi kunda ko'pgina mamlakatlar (masalan, Italiya, Indoneziya va boshqa) da shevalar adabiy til bilan teng suratda qo'llanmoqda. Adabiy til tushunchasi odatda til uslublari tushunchasi bilan bog'lanadi. Ammo bu bog'lanish bir tomonlama.

Chunki til uslubiyatlarining o'zi adabiy til ko'rinishlari hisoblanadi. Ular tarixan shakllangan, muayyan belgilar majmuidan iborat bo'ladi. Mazkur belgilarning bir qismi boshqa uslublarda takrorlanishi mumkin. Lekin, bu takroriy belgilarning ma'lum shaklda birikishi va vazifasining o'ziga xosligi bir uslubning ikkinchi uslubdan farqini belgilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.To'ychiboyev.B,Hasanov B.O'zbek dialektologiyasi.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2004-yil.
- 2.Reshetov V, Abdurahmonov Sh. O'zbek dialektologiyasi. "O'qituvchi" nashri. Toshkent. 1978.
- 3.Yer yuzi bir dashtu sahro bo'lsa, gulzori ilm, Sahnai olamni bo'lmoqda namudori ilm. Oraziy.